

**O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI VA HUQUQIY MODERNIZATSIYA:
INSON HUQUQLARI, IQTISODIY ISLOHOTLAR VA
DAVLAT BOSHQARUVI**

Najimova Jamola Davron qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. 2023-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi islohotlari mamlakatning huquqiy tizimini yangi bosqichga olib chiqish, inson huquqlari institutini mustahkamlash va davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni joriy etishga qaratilgan. Ushbu jarayon Prezident Shavkat Mirziyoyevning konstitutsiyaviy islohotlarga oid nutqlari va murojaatnomalari hamda xalqaro konstitutsiyaviy tajriba asosida keng tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi Konstitutsiyaning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi strategik ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy islohotlar, inson huquqlari, davlat boshqaruvi, demokratik tamoyillar, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, xalqaro standartlar, Prezident Shavkat Mirziyoyev, referendum, qonun ustuvorligi, iqtisodiy islohotlar, fuqarolik institutlari.

I. KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy-huquqiy taraqqiyotida tub burilish yasagan tarixiy hujjat sifatida Yangi O‘zbekistonning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Konstitutsiyaning yangi tahriri nafaqat davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish, balki inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tarish orqali modernizatsiya jarayonlarining huquqiy kafolatini mustahkamladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyatini izohlab, “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya insonning qadrini yuksaltirish, adolat va rivojlanish tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlarimizning mustahkam tayanchidir”, deb ta’kidlagan [1]. Mazkur tamoyil konstitutsiyaviy islohotlarning markazida inson manfaatlari turganini anglatadi.

Konstitutsiyaviy huquq nazariyasiga ko‘ra, zamonaviy konstitutsiya faqat davlat tuzilishini belgilovchi hujjat emas, balki jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuvning oliy shaklidir. Mashhur konstitutsiyashunos olim V.E. Chirkin ta’kidlaganidek, konstitutsiya inson huquqlarini e’lon qilish bilangina cheklanmay, ularning real amalga oshirilishini ta’minlovchi institutsional mexanizmlarni ham mustahkamlashi lozim. O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri aynan shu

yondashuvni o‘zida mujassam etib, huquqiy davlat konsepsiyasini amaliy mazmun bilan boyitdi [2].

Konstitutsiyada amalga oshirilgan o‘zgarishlar O‘zbekistonning siyosiy tizimini erkinlashtirish, konstitutsiyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, inson qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizlik, adolatli sud himoyasi kabi fundamental qadriyatlarining mustahkam konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lishi demokratik huquqiy davlatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qiynoqlarning barcha shakllarini mutlaq man etish, sudga murojaat qilishning kafolatlarini kengaytirish, davlat organlari faoliyatining shaffofligini kuchaytirish kabi normalar xalqaro konstitutsiyaviy standartlarga, xususan BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Paktiga mos ravishda takomillashtirildi [3]. Bu O‘zbekistonning inson huquqlari borasida xalqaro majburiyatlariga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

II.METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot konstitutsiyaviy huquq va siyosiy-huquqiy modernizatsiya sohasidagi ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida dialektik metod qo‘llanilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda belgilangan normalarning jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlari va davlat boshqaruvi tizimi bilan o‘zaro uzviy bog‘liqligi tahlil qilindi.

Shuningdek, huquqiy tahlil metodi orqali Konstitutsiyaning inson huquqlari, iqtisodiy islohotlar va davlat boshqaruviga oid normalari mazmunan o‘rganilib, ularning huquqiy mohiyati va amaliy ahamiyati yoritildi. Formal-yuridik metod yordamida konstitutsiyaviy normalarning tuzilishi, mazmuni va normativ kuchi aniqlanib, ularning milliy huquq tizimidagi o‘rni belgilandi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy metoddan foydalanilib, O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi asosiy islohotlar Germaniya, Fransiya va Polsha kabi demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy amaliyoti bilan solishtirildi. Bu yondashuv konstitutsiyaviy modernizatsiyaning umumiy tendensiyalarini aniqlash va milliy tajribaning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, tizimli-tahliliy metod asosida Konstitutsiyaning inson huquqlari, fuqarolik jamiyati institutlari va iqtisodiy erkinliklarga oid normalari yagona huquqiy mexanizm sifatida ko‘rib chiqildi. Mantiqiy va induktiv-deduktiv usullar orqali xulosalar shakllantirilib, umumiy nazariy qoidalar asosida ilmiy natijalarga erishildi. Empirik ma’lumotlarni tahlil qilishda sotsiologik metoddan foydalanilib, jamoatchilik fikrini ifodalovchi rasmiy so‘rovlar, referendum natijalari va ochiq statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Ushbu metodlar majmui tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, xolisligi va natijalarning ishonchligini ta’minladi.

III.NATIJALAR

Xalqaro huquqshunoslikda e’tirof etilishicha, inson huquqlarining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi davlatning demokratik yetuklik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Thomas Buergenthal va Dinah Shelton o’zlarining “International Human Rights” nomli fundamental darsligida inson huquqlarini konstitutsiyada kafolatlash davlatni xalqaro huquq subyekti sifatida mas’uliyatini kuchaytirishini alohida qayd etadilar. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi yangi normalar milliy huquq tizimini xalqaro inson huquqlari mexanizmlari bilan uzviy uyg‘unlashtirdi [4].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va ahamiyati alohida qayd etildi. NNTlar, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik nazorati institutining mustahkamlanishi davlatning fuqaroga xizmat qilishi tamoyilini kuchaytiradi. Bu borada Prezidentning “Bizning asosiy maqsadimiz – jamoatchilik ishtirokini kengaytirish orqali ochiq, adolatli va javobgar davlatni shakllantirishdir” [5], degan fikri konstitutsiyaviy islohotlarning mohiyatini aniq ifodalaydi. Konstitutsiyadagi bunday yondashuv demokratik boshqaruvning asosiy talablariga to‘liq mos bo‘lib, davlatning fuqarolarga nisbatan ochiqligi va hisobdorligini oshiradi.

Fuqarolik jamiyati masalasida J. Habermas tomonidan ishlab chiqilgan “ommaviy maydon” konsepsiyasi muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ochiq muloqot demokratik legitimlikning asosi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida jamoatchilik nazorati va OAV erkinligining mustahkamlanishi aynan shu demokratik modelga mos keladi [6].

IV.MUHOKAMA

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar mamlakatning huquqiy tizimini tubdan takomillashtirishga, demokratik tamoyillarni mustahkamlashga qaratilgan muhim jarayon sifatida e’tirof etilmoqda. Ijtimoiy Fikr jamoasi tomonidan 2022-yilda o‘tkazilgan keng qamrovli so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 83 foizi O‘zbekiston Konstitutsiyasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu raqam mamlakatdagi aholining o‘zgarishlarga bo‘lgan ijobiy munosabatini va davlat siyosatiga bo‘lgan ishonchini yaqqol ifodalaydi [7].

Siyosiy-huquqiy tadqiqotlarda bunday ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi konstitutsion legitimlikning muhim ko‘rsatkichi sifatida baholanadi. A. Dicey ta’kidlaganidek, konstitutsiya faqat huquqiy hujjat bo‘lib qolmasdan, xalqning huquqiy ongida mustahkam o‘rin egallagan taqdirdagina samarali ishlaydi.

Bundan tashqari, 2023 yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri bo‘yicha o‘tkazilgan umumxalq referendum natijasida 90,21 foiz ovoz bilan qabul qilinishi ushbu islohotlarning keng jamoatchilik tomonidan tasdiqlanganligini ko‘rsatadi. Ushbu ommaviy qo‘llab-quvvatlash mamlakatda huquqiy islohotlarning

samarali olib borilayotganidan dalolat beradi hamda yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkam huquqiy kafolati sifatida baholanmoqda [8].

Bu kabi islohotlar Germaniya, Polsha va Fransiya kabi davlatlardagi konstitutsion nazorat modellari bilan uyg‘un bo‘lib, O‘zbekistonning demokratik modernizatsiya yo‘lini mustahkamlaydi. Venetsiya komissiyasi tomonidan konstitutsiyaviy islohotlar jarayoni bo‘yicha berilgan xolis fikrlar ham O‘zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsion o‘zgarishlarning xalqaro standartlarga mos ravishda shakllanganini tasdiqlaydi [9].

Konstitutsiya mamlakat iqtisodiy modernizatsiyasi uchun ham mustahkam poydevor yaratdi. Xususiyl mulk daxlsizligi, tadbirkorlik erkinligi, bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirishga doir normalarning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi iqtisodiy islohotlarning barqarorligini ta’minlaydi. Yangi tahrirda iqtisodiyotda davlatning ortiqcha aralashuvini cheklash, raqobat muhitini mustahkamlash va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga doir normalar belgilab qo‘yildi. Prezidentning “Bizning barcha islohotlarimizning bosh maqsadi – xalqimiz farovonligini oshirishdir” [10], degan fikri konstitutsiyaviy islohotlarning iqtisodiy zaminini yoritadi.

Iqtisodiy huquq nazariyasida konstitutsiyaviy kafolatlar investitsion muhit barqarorligining asosiy sharti sifatida qaraladi. Joseph Stiglitzning fikricha, huquqiy kafolatlar mustahkam bo‘lmagan davlatlarda iqtisodiy islohotlar uzoq muddatli samara bermaydi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Konstitutsiyasida iqtisodiy erkinliklarning mustahkamlanishi barqaror rivojlanish uchun huquqiy asos yaratdi.

V.XULOSA

Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining huquqiy kafolati sifatida nafaqat normativ hujjat, balki davlatning strategik maqsad va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi siyosiy-huquqiy konsepsiya sifatida namoyon bo‘ldi. Unda belgilangan tamoyillar – qonun ustuvorligi, adolat, inson huquqlari, kuchli fuqarolik jamiyati, ochiq davlat boshqaruvi — O‘zbekistonning kelgusi taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida xizmat qilmoqda. Xalqaro maydonda O‘zbekistonning demokratik imijini mustahkamlash, huquqiy davlat sifatida tan olinishiga xizmat qilayotgan ushbu islohotlar mamlakatni rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekiston tarixida muhim siyosiy-huquqiy voqea bo‘lib, u Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining huquqiy kafolati sifatida mustahkam o‘rin egalladi. Konstitutsiyada belgilangan normalar inson huquqlari, iqtisodiy islohotlar, davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati rivoji uchun zamonaviy huquqiy asos yaratdi. Konstitutsion islohotlarning markazida inson qadri turgani esa yangi davrning bosh g‘oyasini belgilab berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sh.M. Mirziyoyev. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Yangi O‘zbekistonning mustahkam tayanchi”, 2023.
https://constitution.uz/oz/pages/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat
- 2.Конституционное право: учебник для бакалавриата / В.Е.Чиркин. М.: Норма: ИНФРА-М, 2018-304 с.
- 3.UN Human Rights. International Covenant on Civil and Political Rights.
<https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>
4. Buergenthal, Thomas and Shelton, Dinah L. and Stewart, David P., International Human Rights in a Nutshell (2009). Thomas Buergenthal, Dinah Shelton & David P. Stewart, INTERNATIONAL HUMAN RIGHTS IN A NUTSHELL (4th ed. 2009), GWU Legal Studies Research Paper No. 2013-34, GWU Law School Public Law Research Paper No. 2013-34.
- 5.Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2022 yil.
<https://president.uz/uz/lists/view/4942>
- 6.Jürgen Habermas, “The Structural Transformation of the Public Sphere”, MIT Press
- 7.Survey: 83% of Uzbeks support constitutional reform in the country.
<https://kun.uz/en/news/2022/06/28/survey-83-of-uzbeks-support-constitutional-reform-in-the-country>
- 8.https://constitution.uz/oz/pages/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat
- 9.Venice Commission. “Constitutional Reforms and International Standards”, 2020.
<https://www.venice.coe.int>
- 10.Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi (2022–2026). <https://strategy.uz>